

MALAKA OSHIRISH TO'G'RSIDA
SHARTNOMA MO/ 1211 - son

Toshkent sh.

2022 yil "31" 01.

Amir Temur nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati akademiyasi boshlig'i Azizov Ulug'bek O'ktamovich (bundan buyon matnda "DXX Akademiyasi" deb ataladi) bir tomondan va "Toshkent GES lari kasrati" unitar korxonasi nomidan ustav asosida faoliyat yurituvchi direktor Hayrullaev D (bundan buyon matnda "Buyurtmachi" deb ataladi) ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. DXX Akademiyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-dekabrda 787-75-son qaroriga muvofiq malaka oshirish kurslarini sifatli tashkil etishni, Buyurtmachi esa malaka oshirish bilan bog'liq xarajatlarni to'lashni o'z zimmasiga oladi.

1.2. O'quv kurslarida o'quv mashg'ulotlari DXX Akademiyasi tomonidan tasdiqlanadigan 36 akademik soatdan iborat o'quv dasturi asosida olib boriladi.

2. Malaka oshirish uchun belgilangan to'lov va hisob-kitob tartibi

2.1. Tasdiqlangan o'quv dasturi bo'yicha o'quv kurslari uchun belgilangan to'lov bir kishi uchun qo'shimcha qiymat solig'isiz bazaviy hisoblash miqdorining uch baravarini tashkil etadi.

2.2. Buyurtmachi tomonidan 1 (bir) nafar xodim uchun 810000 (- million sakkiz yuz on ming - yuz) so'm o'tkaziladi.

2.3. Buyurtmachi shartnoma qiymatining 100 foiz to'lovini besh bank ish kuni mobaynida oldindan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi.

2.4. Buyurtmachi shartnomaning ikkinchi nusxasini malaka oshirish kursi boshlangan vaqtda DXX Akademiyasiga taqdim etilishini ta'minlaydi.

3. DXX Akademiyasining huquq va majburiyatlari

3.1. DXX Akademiyasi quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

o'quv kurslar jarayonini sifatli tashkil qilishni ta'minlash;
mashg'ulotlarni soha bo'yicha yuqori malakaga ega bo'lgan professor-o'qituvchi va amaliyotchi mutaxassislar tomonidan o'tkazilishini ta'minlash;
tinglovchilarni o'quv materiallari bilan ta'minlash;
o'quv kurslarini an'anaviy shaklda tashkil etish;
o'quv kurslar yakuni bo'yicha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan tinglovchilarga belgilangan namunadagi sertifikat berish.

4. Buyurtmachining majburiyati

4.1. Buyurtmachi quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

o'quv kurslar uchun belgilangan to'lovni o'z vaqtida amalga oshirish;
belgilangan o'quv mashg'ulotlarida tinglovchilarning to'liq ishtirokini ta'minlash.

5. Tomonlarning javobgarligi

5.1. Ushbu shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki lozim bo'lgan darajada bajarmaslik tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikni yuzaga keltiradi.

5.2. Shartnoma yuzasidan vujudga keladigan har qanday nizoli masalalar tomonlar o'rtasida muzokaralar o'tkazish yo'li bilan hal qilinadi. Kelishuvga erishilmagan hollarda nizo sud tartibida hal etiladi.

5.3. Ushbu shartnomani bajarishda tomonlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladilar.

6. Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish hamda bekor qilish tartibi

6.1. Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish yoki qo'shimchalar yozma ravishda rasmiylashtirilib, har ikki tomon imzolagandan keyin kuchga kiradi.

6.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish tomonlarning kelishuvi bo'yicha yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarda va tartibda amalga oshiriladi.

6.3. Shartnoma quyidagi hollarda DXX Akademiyasi tomonidan bir tomonlama bekor qilinishi mumkin:
tinglovchi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-dekabrda 787-75-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablarini buzganda;

malaka oshirish uchun belgilangan to'lov to'liq va o'z vaqtida amalga oshirilmaganda;

• 6.4. Shartnomani bekor qilishga qaror qilgan taraf boshqa tarafga bu haqda yozma xabarnoma yuboradi.

7. Fors-major holatlari

7.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmaz kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflarning birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar bo'lmaydi. Vakolatli organ tomonidan berilgan maxsus hujjat yengib bo'lmaz kuch mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

7.2. O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo'lmaz kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim. Agar yengib bo'lmaz kuch uzluksiz amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnoma yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

8. Boshqa shartlar

8.1. Buyurtmachi o'quv dasturlarini ishlab chiqish va o'quv kurslariga mutaxassislarni jalb qilish yuzasidan DXX Akademiyasiga takliflar kiritishi mumkin.

8.2. O'quv kurslarida o'quv jarayoni, qoidaga ko'ra, 26 nafardan ortiq bo'lmagan tinglovchilardan iborat akademik guruhlarda tashkil qilinadi.

8.3. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan barcha shartlar amaldagi qonunchilik asosida tartibga solinadi.

9. Alohida shartlar

9.1. Tomonlarning har biri mazkur shartnoma bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurash siyosatini olib borishni tan oladilar va tasdiqlaydilar. Barcha korrupsiyaviy xatti-harakatlarda qatnashmaslik, jumladan pul mablag'lari yoki boshqa ko'rinishda pora taklif qilmaslik, va'da bermaslik, shuningdek o'z vakolatlarini suiste'mol qilmaslik kabi talablarga amal qilishlari shart.

9.2. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagan kundan kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabr kuniga qadar amal qiladi.

9.3. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilgan va bir xil yuridik kuchga ega.

TOMONLARNING REKVIZITLARI:

“BAJARUVCHI” DXX AKADEMIYASI

Manzil: Toshkent shahar, T.Shevchenko
ko'chasi, 20-uy,

MB Toshkent shahar bosh boshqarmasi XKKM

h/r 21506000800447952001 bank kodi 00014,

stir 202 234169 OKED 85420,

tel. 71-252-92-82



M.O:

U.Azizov

“BUYURTMACHI”



Xayrullaev D.